



MILLIY VALYUTA BARQARORLIGI TA'MINLASHDA INFLATSION TARGETLASH USULINING AHAMIYATI VA O'RNI

Shamansurova Zilola Abduvaxidovna

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti "Moliya" kafedrasi dotsenti

O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti "Moliya" kafedrasi "Davlat moliyasi va Xalqaro moliya" yo'nalishi MGF01-1 guruh magistratura talabasi

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 7 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a10	<i>Ushbu maqolada inflatsion targetlash rejimining pul barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillarini, inflatsion targetlash rejimining mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llanishi uchun yaratilayotgan sharoitlar, Yurtimizda milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, yillik inflyatsiya darajasini tushirish uchun Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul – kredit siyosatining mazmun mohiyatini, inflatsion targetlash rejimining paydo bo'lish tarixi, inflatsion targetlash rejimining jahon tajribasi, dunyo mamlakatlarining ko'rsatkichlari va Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan milliy valyutamiz barqarorligini ta'minlash uchun qonunchiligimizdagi olib borilayotgan o'zgarishlar haqida o'rganishlarimizni tahlil qilamiz.</i>
KEYWORDS	<i>Milliy valyuta, pul, inflatsion targetlash, inflyatsiya, pul – kredit siyosati, foiz, jamg'arma, xususiyashtirish.</i>

Kirish (Introduction/Введение)

Hozirgi kunda inflyatsion targetlash usulidan dunyo bo'ylab 55 tadan ko'p mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish, pul barqarorligini ta'minlash, inflyatsiya darajasini ma'lum bir miqdorda ushlab turish, Markaziy bank tomonidan ma'lum qilinadigan asosiy foiz stavkasini tushirishda samarali usul sifatida foydalanilib kelinmoqda. Hozirgi kunda Yurtimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanish davrida bo'lib jahon tajribasidagi eng samarali usullarni o'rganib ularni mamlakatimiz iqtisodiyotida foydalanib Yalpi ichki maxsulotni oshirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash uchun harakat qilinmoqda. Albatta hammamizga ma'lumki har qanday soha rivojlanishi uchun mamlakatda pul-kredit siyosati va soliq siyosati to'g'ri shakllantirilgan bo'lishi va konstitutsiyaviy qonun qoidalarga rioya qilingan bo'lishi kerak. Yurtimizda ham 2017-yilda iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlarining ro'lini oshirishga qaratilgan islohotlarining yangi davri boshlandi. 2017-yil 5-sentyabrdagi PF-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora – tadbirlar to'g'risida"[1] Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning farmoni va 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3272 – sonli "Pul – kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"[2] gi qarori Respublikamizda pul-kredit siyosatida tubdan o'zgarish bo'ldi va inflyatsiya darajasining asta-sekin pasayishiga olib keldi. Bundan keyingi muhim qadamlardan biri bo'lib 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"[3] gi Farmonning qabul qilinishi bo'ldi. Farmonga ko'ra Markaziy bankning mustaqilligi va rivojlanishi bo'yicha tegishli chora tadbirlar qabul qilindi va bosh maqsad sifatida narxlarni ta'minlash vazifasi etib belgilandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-noyabr kuni pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risidagi 5877-sonli "Inflatsion targetlash rejimiga boshqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"[4] Farmoni qabul qilindi. Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma bosqich o'tish orqali Markaziy bank mamlakatimiz hududida inflyatsiya darajasini

2021-yilda 10 foizgacha, 2023-yilda 5 foizgacha tushirishni maqsad qilib belgilandi. Jahon tajribasiga ko'ra Inflatsion targetlash rejimini mamlakat iqtisodiyotida qo'llash orqali mamlakatning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini ta'minlash, mamlakat hududida aholi turmush darajasini yaxshilash, pul – kredit bozorida Markaziy bankning faolligini oshirish va muntazam tahlil qilish, inflyatsiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Adabiyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор).

Inflatsion targetlash rejimining tarixiga nazar soladigan bo'lsak dastlab bu rejim birinchi jahon urushidan keyin oltin standartning umumiy inqirozidan keyin paydo bo'lgan. Dastlab Jon Meynard Keyns o'zining "Pul islohoti to'g'risida"[5] gi asarida inflatsion targetlash rejimining sxemasini tushuntirib o'tgan. Inflatsion targetlash rejimi Yangi Zelandiyada 1989 – yilda amaliyotga joriy qilish bo'yicha loyihalar tayyorlandi va bu rejim Yangi Zelandiyada dastlab 18 oy muddatni o'z ichiga oldi va bu muddat tugagandan so'ng inflyatsiya darajasini bosqichma bosqich tushurish maqsadida yana 12 oy muddatga joriy qilingan. Belgilangan 30 oylik muddatdan so'ng inflatsion targetlash rejimini tadbir etish orqali yangi Zelandiya hududida belgilangan ko'rsatkichga erishilgan[6]. Nyu-York Federal zaxira bankining ijrochi vitse – prezidenti va taraqqiyot direktori va Federal zaxira tizimi Federal ochiq bozor qo'mitasining yordamchi iqtisodchisi Fredrik Stenli Mishkin inflatsion targetlash rejimiga shunday xulosa bildirgan:


"inflatsion targetlash – hamma muammolar yechimi bo'lmasada va ko'plab rivojlanayotgan bozor mamlakatlari uchun mos kelmasada, inflatsion targetlash rejimi ko'plab mamlakatlarning pul – kredit siyosati uchun yuqori manfaatli strategiya bo'lishi mumkin"[7].

Tadqiqot usullari (Research methodology/Методы исследования).

Maqolani yozishda tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baxolash va prognozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results/Анализ и результаты).

O'rganishlarimiz natijasida shuni xulosa qilib aytishimiz mumkin, inflatsion targetlash rejimidan foydalangan mamlakatlar iqtisodiyotida inflyatsiya ko'rsatkichlarini aniq bir meyorda ushlab turishga erishilgan. Misol qilib shuni aytishimiz mumkin, Rossiya Federatsiyasining Markaziy banki tomonidan mamlakatda 2014–yil inflatsion targetlash rejimi joriy qilish uchun say - harakatlar boshlanib bu rejim amaliyotga tadbir etilgandan keyin, 2017 yil oxirida Rossiyaning Markaziy banki tomonidan mamlakat hududida inflyatsiyaning yillik darajasini 4 foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan edi. Mamlakat hududida amalga oshirilgan islohotlar va pul – kredit siyosatining to'g'ri tashkil qilinishi natijasida bu ko'rsatkichga erishish uchun imkoniyatlar paydo bo'ldi. Mamlakat hududida 2016 – yil yakuniga ko'ra inflyatsiya ko'rsatkichi 5.4 foizni, 2015 – yil yakuniga ko'ra esa inflyatsiya ko'rsatkichi 12.9 foizni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni inflatsion targetlash rejimini qo'llash orqali Rossiya hududida milliy valyutaning 1 AQSH dollariga nisbatan 64 – 67 rubl miqdorida bo'lishini ta'minlangan, zaxira fondi mablag'laridan davlat defitsitini so'ndirish orqali pul massasining ko'payishining oldi olingan, Rossiya Federatsiyasi hududida pul massasining past darajada o'sishiga erishilgan. Misol qilib shuni aytib o'tishimiz mumkin 2015 – yil yakuniga ko'ra Rossiya federatsiyasi hududida pul massasining o'sishi 11.5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 – yilga kelib bu ko'rsatkich 9.2 foizga tushgan[8]. Jahon tajribasiga asoslanadigan bo'lsak asosan dunyo bo'ylab inflatsion targetlash rejimidan foydalanayotgan davlatlar markaziy banklari tomonidan mamlakat hududida inflyatsiya darajasini 2 – 7 foiz ko'rsatkichda qabul qilinayotganini ko'rishimiz mumkin. Inflatsion targetlash rejimining mamlakat hududida ko'zlangan maqsadga erishish uchun asosan 2 ta omil muhim hisoblanadi. Birinchisi bu Markaziy bank mamlakat hududida pul – kredit siyosatini mustaqil olib borishi kerak, chunki ko'zlangan inflyatsiya darajasiga erishish uchun Markaziy bank monetar instrumentlarni o'zi tanlashini taqazo etadi. Ikkinchi omil esa inflatsion targetlash rejimida tanlanadigan ko'rsatkichlar oylik maoshlarining ko'tarilishi, aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasi, valyuta almashuv kurslarini tanlash kabi bir qator ko'rsatkichlar tanlanmasligi kerak.



1-rasm. Markaziy bank tomonidan taqdim qilingan inflatsion targetlash rejimining prognozi¹

Chunki kelajakda bu ko'rsatkichga erishish uchun Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul – kredit siyosatida va monetar instrumentlardan foydalanishda belgilangan inflyatsiya ko'rsatkichiga

erishish uchun turli xil cheklovlar va Markaziy bankning mustaqilligi funksiyasidan to'liq foydala olmasligi mumkin. Bu esa pul – kredit siyosatining maqsadlarida o'zaro tushunmovchiliklarga yoki qarama – qarshilikka olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkin Markaziy bank tomonidan inflatsion targetlash rejimining mamlakatimizda joriy qilinishi natijasida 2019 – yil oktyabr oyida taxminan 17 foiz darajasida bo'lgan bo'lsa, 2023 – yil 4 – choragiga kelib yurtimizda inflyatsiya darajasini 5 foizga tushirish bo'yicha prognozlar qilingan.

Muhokama (Discussion/Обсуждение).

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida olib borilayotgan islohotlar natijasida jahon tajribalarini o'rgangan holda O'zbekiston Respublikasida ham inflatsion targetlash rejimiga o'tish uchun dastlabki qadamlar tashlanib bo'lingan. Buning natijasida Prezidentimiz tomonidan muhim qarorlar va farmonlar ham qabul qilindi. Ayniqsa pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risidagi 5877-sonli "Inflatsion targetlash rejimiga boshqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" Farmonining ijrosini ta'minlash uchun mamlakatimiz hududida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Moliyaviy sektorlarda asosan bank tizimida davlat ulushi kamaytirilmoqda deyarli har yili davlat tasarrufidagi davlat ulushlari xususiy sektorga berilmoqda, misol qilib shuni aytib o'tishimiz mumkin, 2024 – yilda davlat ulushi bo'lgan eng katta va samaradorligi yuqori bo'lgan banklarimizdan biri bo'lgan Asaka bankni ham davlat ulushini xususiy lashtirish uchun topshiriqlar berilgan, valyuta bozorida olib borilayotgan islohotlar natijasida valyuta kursining tebranuvchanligini oshirish natijasida uning inflatsion kutilmalarga ta'sirini kamaytirishga asta sekin erishilmoqda, mamlakat hududida dollarlashuv darajasini pasaytirish maqsadida milliy valyutadagi jamg'armalarni yanada rag'batlantirish uchun bir qator takliflar aholiga taklif qilinmoqda, misol tariqasida mamlakatimiz hududidagi banklar tomonidan aholiga milliy valyutadagi omonatlar uchun hozirgi kunda 23 – 28 foizli va xorijiy valyuta dollarda 5-7 foizli omonatlarni taklif qilinmoqda, bundan ko'rishimiz mumkin aholi omonatidan banklarda saqlanadigan omonatlarni milliy valyutada omonatga qo'yish xorijiy valyutada omonat qo'yishga nisbatan manfaatliroq va ko'proq foyda erishishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar asosan 2023 – yil 11 – sentabrdagi PF – 158 – sonli " O'zbekiston – 2030 " strategiyasi to'g'risidagi Farmondagi maqsadlarga erishish uchun harakat qilinmoqda. Yaqinda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan " Yoshlar va biznesni qo'llab – quvvatlash yili " da amalga oshiriladigan islohotlar bo'yicha Farmonida ham 2024 – yil uchun yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha, fiskal taqchillikni 4 foizgacha, banklar tomonidan aholiga taqdim qilinadigan kredit stavkalarini 2 – 3 foizga pasaytirish uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan[9].

Xulosa (Conclusions/Заключения).

Demak xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, mamlakatimiz iqtisodiyotida inflatsion targetlash rejimini joriy qilish orqali Markaziy bank tomonidan inflyatsiya darajasini tushirish, milliy valyutamiz barqarorligini ta'minlash, pul – kredit siyosatini yanada takomillashtirish va iqtisodiyotimiz rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib aholi faravonligiga erishish uchun harakat qilinayotganini ko'rishimiz mumkin.

References:

1. "Valyuta siyosatini liberalashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora – tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 5-sentyabrdagi PF-5177-sonli farmon
2. "Pul – kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3272 – sonli qaror
3. "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul- kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida " PF-5877 sonli qaror
4. "O'ZBEKISTON — 2030" Strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli Farmoni
5. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi " SH.M.Mirziyoyev Toshkent, O'zbekiston, 2021 464 b
6. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining elektron sahifasi
7. <https://lex.uz/> O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Inflation_targeting wikipedia elektron kutubxona
9. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/basics/72-inflation-targeting.htm> international monetary fund elektron sayti
10. <https://cbonds.com/glossary/inflation-targeting/> cbonds ma'lumotlar sayti
11. <https://review.uz/uz/post/inflyatsion-targetlash-va-uning-ziga-xos-xususiyatlari> review.uz tahliliy sharhlar nashri..